XALQ DEPUTATLARI SHAXRIXON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 12-sentabr VI-44-67-1-28-K/24 Shaxrixon tumani

Shahrixon tumanning ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni “Yer resurslaridan oqilona foydalanish, yer hisobini yuritish hamda kadastr xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni hamda mazkur bayonning 20-bandi ijrosini ta’minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”sining 6 va 7-bandlarida hududiy komissiyalar tomonidan muammoli hududlarda chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha tayyorlangan takliflarni ko‘rib chiqish va qo‘shni hududlar bilan kelishish hamda kelishilgan chegara chizig‘ini tasdiqlash bo‘yicha tegishli Xalq deputatlari Kengashining qarorlarini qabul qilish choralarini ko‘rish topshirig‘i berilgan.

Ma’lumki, Shahrixon tumani ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi tuman Komissiyasining 2024-yil 10-iyuldagi 1-sonli bayonnomasi bilan Shahrixon tumanining Farg‘ona viloyati, Baliqchi, Oltinko‘l va Asaka tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasining kartorafik chizmalari va chegaraning tavsiflari tegishlicha ilovalarga muvofiq tasdiqlangan.

“Yo‘l xaritasi”ning 5-bandi ijrosini bo‘yicha, Kadastr agentligi tomonidan Shahrixon tumanining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflari tayyorlanib, Agentlikning 2024-yil 12-apreldagi 03/08-3449-sonli xati bilan Kadastr agentligi Andijon viloyati boshqarmasiga ko‘rib chiqish va kelishish uchun taqdim etilgan.

Respublika aerogodeziya markazi Farg‘ona xududlararo bo‘linmasining 2024-yil 09-iyuldagi 126-sonli xat bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga murojaat qilib, tuman kengashining sessiyasida Shahrixon tumanining chegara chizig‘i chizmasi va tavsiflarini ko‘rib chiqilishida amaliy yordam berilishi so‘ralgan.

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasiga muvofiq hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

- O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 12-apreldagi 03/08-3449-sonli xati;

- Respublika aerogodeziya markazi Farg‘ona xududlararo bo‘linmasining 2024-yil 09-iyuldagi 126-sonli xati;

- tuman ishchi komissiyasining 2024-yil 10-iyuldagi 1-sonli bayonnomasi inobatga olinsin.

2. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat xokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida “Xalq deputatlari Kengashi, hokim O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq yer munosabatlariga doir boshqa masalalarni hal qilishi”;

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasida xalq deputatlari viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi tumanlari va shaharlari) Kengashlari o‘z vakolatlari doirasida ma’muriy-hududiy tuzilish masalalariga doir qarorlar qabul qilishi belgilanganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

3. Shahrixon tumani ma’muriy-hududiy chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtiruvchi komissiyasining (keyingi o‘rinlarda-Komissiya deb yuritiladi) Shahrixon tumanining Farg‘ona viloyati, Baliqchi, Oltinko‘l va Asaka tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash to‘g‘risida”gi yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Shahrixon tumanining ma’muriy-hududiy chegara uzunligi va umumiy yer maydoni 1-ilovaga, Shahrixon tumanining ma’muriy-hududiy chegara chizig’ining sxemasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Xalq deputatlari viloyat Kengashining tegishli qarori qabul qilinganda hamda ma’muriy-hududiy chegara davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandagina (Ma’muriy hududiy birliklar davlat reyestriga kiritilganda) Shahrixon tumanining Farg‘ona, Namangan viloyatlar hamda Bo‘ston, Baliqchi tumanlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasi belgilangan deb hisoblansin.

6. Qaror bajarilishini nazorat qilish vazifasi xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (Q.Sarimsaqov) hamdaKadastr agentligining Andijon viloyati Shahrixon tumani bo‘limi boshlig‘i (A.Maqsudov) zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu Kengash qarori rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari viloyat Kengashidan so‘ralsin.

Kengash raisi

DADAXONOV
XIKMATULLO
VAXABOVICH

Xalq deputatlari Shaxrixon tumani
Kengashining
2024-yil 12-sentabrdagi
VI-44-67-1-28-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Ma’muriy-hududiy chegara uzunligi va umumiy yer maydoni


№	Tuman nomi	Chegara uzunligi (metr)	Yer maydoni (gektar)
1.	**Shahrixon tumani**	**123124,20**	**28898,83**

Xalq deputatlari Shaxrixon tumani

Kengashining
2024-yil 15-martdagi
VI-_____-K/24-sonli qaroriga
2-ilova

Andijon viloyati Shahrixon tumanining ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining

CHIZMASI



Xalq deputatlari Shaxrixon tumani
Kengashining
2024-yil 12-sentabrdagi
VI-44-67-1-28-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Andijon viloyati Shahrixon tumanining
ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining

CHIZMASI

